

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

«MOLIYAVIY TAHLIL VA AUDIT» KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 658.1:657(575.1)

DO'LABOV ZAFARJON AKBAROVICH
BUXGALTERIYA BALANSINING AUDITI VA TAHLILI

70410102– «Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)» mutaxassisligi
bo'yicha

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A S I Y A

Ilmiy rahbar:

i.f.b.f.d., dots. Qalandarova N.N

TOSHKENT–2023

Magistrlik dissertatsiya ishi «Moliyaviy tahlil va audit» kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

3 -sonli bayonnoma «25» aprel 2023-y.

Kafedra mudiri:

i.f.d., prof N.Sh.Xajimuratov


imzo

18.05.2023 g
sana


Ilmiy rahbar:

i.f.b.f.d., dots. Qalandarova N.N


imzo

18.05.2023 g
sana

Tinglovchi: Z.A.Do'labov


imzo

17.05.2023 g
sana

Dissertatsiya "Moliya va buxgalteriya hisobi" fakultetida 2023-yil
«18» may

№ MUA-01/11 raqami bilan ro'yxatga olindi.

ANNOTATSIYA

Mazkur dissertatsiya ishida xo'jalik yurituvchi subyektlarning buxgalteriya balansini tahlil qilish va auditdan o'tkazish masalalari yoritilgan. Ishda buxgalteriya balans elementlari auditdan o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan, hozirgi kunda amaliyotda mavjud bo'lgan muammolar keltirilgan. Xo'jalik yurituvchi subyektlarining buxgalteriya balans tarkibiy tuzulishi, dinamik tahlil qilingan. Buxgalteriya balans auditida auditning xalqaro standartlari foydalanish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: *moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot, aktivlar, xususiy kapital, zaxiralar, moliyaviy barqarorlik, auditning xalqaro standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.*

ABSTRACT

The issues of analysis and audit of the accounting balance of economic entities are covered in this thesis. In the work, the problems associated with the audit of accounting balance elements, which exist in practice today, are presented. The structural structure and dynamic analysis of the accounting balance of economic subjects. Proposals are given on the use of international auditing standards in the audit of the balance sheet.

Key words: *financial position statement, assets, equity, inventory, financial stability, international standards of auditing, international standards of financial reporting.*

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro‘yxati	6
Keltirilgan rasmlar ro‘yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar ro‘yxati	8
I BOB. KIRISH	9
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	11
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari	12
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	12
1.4. Tadqiqot obyekti va predmeti	12
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy–nazariy va amaliy ahamiyati	12
1.6. Tadqiqotning tarkibiy tuzilmasi	13
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	14
2.1. Ilmiy–nazariy adabiyotlar sharhi	14
2.2. Ilmiy–amaliy adabiyotlar sharhi	23
III BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI	25
3.1. Tadqiqotda qo‘llanilgan usullar	25
3.2. Tadqiqotning ma’lumot manbalari	25
IV BOB. TADQIQOT TAHLILI VA NATIJALARI	26
4.1. Buxgalteriya balansini auditining nazariy asoslari	26
4.2. Buxgalteriya balansini xalqaro standartlar asosida tuzish va taqdim qilish tartibi.....	41
4.3. Buxgalteriya balansini auditining axborot manbalari va buxgalteriya balansini ko‘rsatkichlari tahlili.....	51
V BOB. XULOSA	58
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	58
5.2. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan takliflar va tavsiyalar.....	58
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	61
5.4. Tadqiqot natijalarining amaliyotga tegishliligi va natijalarning amaliy ahamiyati.....	61
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	62
	65

I BOB. KIRISH

1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Respublikamizda o'tkazilayotgan tub islohotlardan bosh maqsadi bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy davlat qurish va uni rivojlantirishdir. Ushbu mamlakat iqtisodiyotida mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonani vujudga keltirish hamda mavjud moddiy, mehnat va moliya resurslarini samarali foydalanishni ta'minlaydigan iqtisodiy munosabatlar tizimini yaratish, ularni bosqichma- bosqich, ya'ni evolyutsion yo'l bilan amalga oshirish maqsadiga muvofiqligi alohida ta'kidlangan.

Korxonalar samarali faoliyat ko'rsatishi uchun xo'jalik mexanizmining barcha elementlari mukammal ishlashi zarur. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, buxgalteriya hisobi xo'jalik mexanizmining asosiy elementi sifatida korxonani boshqarish uchun talab qilinadigan ma'lumotlarning asosiy qismini berishni e'tiborga oladigan bo'lsak, bozor iqtisodiyoti talablari asosida tashkil qilish kunning o'ta dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Xarajatlar hisobi va auditining nazariy va uslubiy asoslarni bozor iqtisodiyoti talablariga mos holda har bir tarmoqning ayniqsa, respublikamizning sanoatining yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan yengil sanoat korxonalarining o'ziga xos tashkiliy- texnologik xususiyatlarini hisobga olib yo'lga qo'yish hozirgi kunning o'ta muhim, yechimini kutayotgan muammolari sirasiga kiradi. Chunonchi, ushbu muammolarning muvaffaqiyatli hal etilishi tarmoq korxonalarining iqtisodiy rivojlanishida alohida ahamiyatga ega. Bularning tadqiqot obyekti sifatida tanlanishi uning dolzarbligi va ahamiyatli ekanligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida»gi qarori¹ bilan auditorlik xizmatlari bozorining shakllanishiga va mahalliy auditorlik tashkilotlari auditorlik kompaniyalarining yirik xalqaro tarmoqlariga kirishini ta'minlashga imkon

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-son Qarori.